



ZAMONAVIY ARAB SHE'RIYATIGA BIR NAZAR (Solih Zamananning "Abadiyat manzillari" to'plami misolida)

Hamdamov Ulug'bek Abdurahobovich

*Filologiya fanlari doktori, professor,
O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti "XX asr
o'zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon" bo'limi mudiri
Toshkent, O'zbekiston*
<https://orcid.org/0009-0002-7750-5341>

Sabirova Zebo Zokirovna

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.b.
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston*
<https://orcid.org/0000-0002-1104-2893>

ANNOTATSIYA

Maqola zamonaviy arab she'riyati, xususan, globallashuv davri shoirlaridan biri Solih Zamananning o'zbek tiliga tarjima qilingan she'riyatining tadqiq va tahliliga bag'ishlangan bo'lib, o'zbek she'riyatida kechgan yangilanishlar bilan muqoyasa qilinadi. Bugun butun dunyoni qamrab olgan globallashuv jarayoni jahon adabiyotida bir talay jiddiy o'zgarishlarni vujudga keltirdi. Zamonaviy arab she'riyati ham bundan mustasno emas. Solih Zamanan she'riyati esa ana shu salmoqli evrilishlarni o'zida mujassam qilgan, ayni paytda, shakl va mazmun mundarijasiga ko'ra o'ziga xos she'riyatdir.

KALIT SO'ZLAR

Globallashuv, modernizm, postmodernizm, zamonaviy arab she'riyati, verlibr, o'zbek she'riyati, tarjima, tarjimon, qiyosiy tahlil.

ОБЗОР СОВРЕМЕННОЙ АРАБСКОЙ ПОЭЗИИ (на примере сборника Салиха Заманана «Адреса вечности»)

Хамдамов Улугбек Абдурахобович

*Доктор филологических наук, профессор,
заведующий отделом "Узбекская литература XX века и современный литературный
процесс" Института узбекского языка, литературы и фольклора РАН
Ташкент, Узбекистан*
<https://orcid.org/0009-0002-7750-5341>

Сабирова Зебо Зокировна

*Доктор философии по филологическим наукам (PhD), и.о. доцента
Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан*
<https://orcid.org/0000-0002-1104-2893>

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена исследованию и анализу современной арабской поэзии, в частности, лирики Салиха Заманана, одного из поэтов эпохи глобализации, в переводе на узбекский язык. В статье особенности лирики арабского поэта последовательно сопоставляются с новациями в узбекской поэзии последних лет. Сегодня процесс

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Глобализация, модернизм, постмодернизм, современная арабская поэзия, верлибр,

глобализации, охвативший весь мир, привел к ряду серьезных изменений в мировой литературе. Современная арабская поэзия не является исключением. Поэзия Салиха Заманана является примером значительных трансформаций, вызванных глобализацией, но в то же время остается уникальной и самобытной как по форме, так и по содержанию.

узбекская поэзия,
перевод, переводчик,
сравнительный анализ.

AN OVERVIEW OF MODERN ARABIC POETRY (In the example of Salih Zamanan's "Addresses of Eternity" collection)

Hamdamov Ulugbek Abduvahobovich

*Doctor of Philological Sciences, Professor,
Head of the department "Uzbek literature of the 20th century and the current literary process" of the Institute
of Uzbek language, literature and folklore of the Russian Academy of Sciences.
Tashkent, Uzbekistan
<https://orcid.org/0009-0002-7750-5341>*

Sabirova Zebo Zokirovna

*Doctor of philosophy in philology,
Uzbekistan State University of World Languages
Tashkent, Uzbekistan
<https://orcid.org/0000-0002-1104-2893>*

ABSTRACT

This article is dedicated to the research and analysis of modern Arabic poetry, especially the poetry of Salih Zamanan, one of the poets of the era of globalization, translated into Uzbek, and it is compared with recent updates in Uzbek poetry. Today, the process of globalization, which covers the whole world, has brought about a number of serious changes in world literature, even contemporary Arabic poetry is no exception. The poetry of Salih Zamanan embodies these significant evolutions, and at the same time, it is a unique poetry in terms of form and content.

KEY WORDS

Globalization, modernism, postmodernism, modern Arabic poetry, verlibr, Uzbek poetry, translation, translator, comparative analysis.

KIRISH

Arabshunos olim, hassos tarjimon, tajribali pedagog Murtazo Saydumarov zamonaviy arab shoiri Solih Zamanan she'rlaridan bir dastasini tanlab, o'zbekchaga mahorat bilan o'girdi. Natijada biz – she'riyat ixlosmandlari "Abadiyat manzillari" deb nomlangan yangi nazmiy to'plamga ega bo'ldik. To'plamga tarjimonning o'zi so'zboshi yozgan. Unda nafaqat Solih Zamananning, ayni paytda, uning avlodiga, umuman, an'anaviy arab nazmidan jiddiy farqlanib turuvchi zamonaviy arab she'riyatiga xos bo'lgan qator jihatlariga nazar tashlandi. Aynan shuning uchun ham biz ushbu maqolada Solih Zamanan she'rlarini baholi qudrat tahlil-u tadqiq etar ekanmiz, bir tomondan, umuman bugungi dunyo she'riyati haqida jahon adabiyotshunosligida bildirilgan umumlashma qarashlarga tayansak, ikkinchi yoqdan, ushbu so'zboshida ilgari surilgan fikrlarni e'tiborda tutamiz, unga tez-tez murojaatlar qilamiz. Yangi to'plam to'g'risida shuni aytish joizki, jahon she'riyatining chinakam ixlosmandlariga bunday tarjimalar bir yutum toza havodek ta'sir qiladi. Poeziya tadqiqotchilari uchun esa asl manba, mulohaza yuritishning yangi ochilgan maydoni hisoblanadi. Demak, qaysi tomondan qaramang, juda foydali bir ish qo'limizda turibdi.

ASOSIY QISM

Bugun deyarli butun dunyoni qamrab olayozgan modernistik kayfiyat asrlar davom-

ida aruz an'anasi doirasida yashab kelgan arab olamini ham chetlab o'tmadi. Bu – tabiiy, albatta. Zero, ertami-kechmi, dunyo jamiyatlari oldinma-ketin bir-biriga yaqin kayfiyatlarni boshidan kechiradi. Har holda, biz bilgan, ozmi-ko'pmi tanigan tarix, jumladan, adabiyot tarixi shundan dalolat beradi. Modernistik, postmodernistik degan jamiyat kayfiyatlari bejiz paydo bo'lgani yo'q, aslida. Keyingi paytlarda olimlar metarealizm, metamodernizm oqimlari haqida so'z yuritishmoqda. Bunday evrilishlarning bir uchi jahon miqyosida shiddat bilan yoyilayotgan, hayotimizning deyarli hamma jabhalarini qamrab olayotgan globallashuv jarayonining tabiiy natijalari bilan chambarchas bog'liq. Globallashuv oqibatida madaniy, siyosiy, iqtisodiy, adabiy, qo'yingki, borliq sohalar bir-biriga dunyo miqyosida ta'sir qiladi, o'zaro integratsiyalashuv yuz berib, bir-biridan ulgu (g'oya) oladi, ulgu beradi. Xullas, hamma sohalarida o'ziga xos standardlashuv jarayoni sodir bo'ladi. Biz hozir mana shunday dunyoda yashayapmiz. Bas, shunday ekan, o'zaro ta'sirdan qochib qutulib bo'lmaydi. Eslang, bir paytlar arab g'azali dastlab Ispaniya, keyin butun Yevropa she'riyatiga ta'sir qilib, bora-bora unda sonet janrining paydo bo'lishiga olib kelgandi. Agar globallashuvning tarixi doirasini kengaytirib qarasak, mana shu hodisaning o'zi unga yorqin bir misol bo'la oladi. Ya'ni dunyo xalqlari adabiyoti hamisha bir-biriga ta'sir qilib kelgani ayonlashadi. "Jahon adabiyoti" atamasi (manbalarda bu termin I. Gyote tomonidan ilk bor iste'molga kiritilgani aytiladi) ham shuning, ya'ni globallashuvning ilk faol ta'siri natijasida vujudga kelgan. O'z milliy mahdudligi ichra qolgan adabiyotlar sekin-asta so'nishga mahkum, albatta. Demak, dunyo uzra yangi, modern kayfiyatning esishi ko'p jihatdan ana shu global ta'sirning mahsulidir, deya bimalol ayta olamiz.

Tarjimon yozadi: "Saad al-Humaydin verlibrda yozilgan she'rlardan iborat "Devordagi rasmlar" (1971) nomli kitob nashr qilgan birinchi shoir bo'ldi. Undan so'ng verlibr tarafdorlari bo'lgan bir qator yosh shoirlar adabiyot sahnasiga kirib keldilar. Ba'zi ismlarni eslab o'tamiz: Ali al-Dumayniy, Muhammad as-Subaytiy, Ahmad as-Solih, Muhammad Jabr al-Harbiy, Abdulloh as-Sayhon, Abdulloh az-Zayd, Hasan as-Sabaa, Xadija al-Umariy, Surayya al-Urayyid, Latifa Qori, Ashjon Hindiy, Fotima al-Qarniy, Josim as-Suhayyih, Ahmad Qiran az-Zahroniy, Ibrohim Miftah, Husayn Suhayl, Ibrohim Sabi, Abdulloh ar-Roshid, Ibrohim al-Vofiy, Ibrohim Zuliy, Muhammad Musayyar Muborakiy, Husayn al-Arviy, Abdulloh al-Xashramiy. Ta'kidlash joizki, bu guruh shoirlar ijodidagi shakl jihatidan an'anaviy bo'lgan baytlar muayyan shartlar doirasidan chiqqan va mualliflarning dunyoga zamonaviy qarashlarini ifodalagan hamda ortiqcha takalluf va ritorikadan xoli tilda yozilgan". Demak, zamonaviy arab she'riyatida lirik turga xos bo'lgan, asrlar davomida yashab kelgan kanonlar o'zgarishga yuz tutmoqda. Bu hodisa hozirgi zamon jahon adabiyotshunosligida "janrlar mutatsiyasi" atamasi bilan ham izohlanmoqda. Sinchkovlik bilan nazar solinsa, janrlar mutatsiyasi barcha asosiy adabiy turlarda (lirik, epik, dramatik) kechayotgan, to'xtatib bo'lmaz bir jarayondir. Chunki dunyo allaqachon globallashuvning shiddatli davriga odim qo'yib bo'lgan.

Har gal poezdlar ovozin eshitganimda,

quloqlarimni berkitaman.

Uning ovozi meni bezovta qilmaydi,

Lekin uning oldida o'z joniga qasd qilganlar...

Hali ham qichqiradilar!

Intiq san'ati vositasida poezdga jon ato etadi shoir. Natijada poezd Solih Zamanan

she'riyatida faol obrazlardan biriga aylanadi. Poezd – yana modern dunyoning matohi. U, masalan, ikki yuz yil oldin yo'q edi. Demak, poezd yangi detal, yangi obraz. Globallashgan zamonda esa uning inson hayotidagi o'rni yanada ortmoqda. Poezd odamlarga bir joydan ikkinchi joyga borish, ko'chish imkonini beradi. Shu ma'noda u ayriliq timsoliga ham aylanmoqda. Bunga Solih Zamananning yuqoridagi she'ri yorqin misol bo'la oladi. Lirik qahramon har gal poezd ovozini eshitganda quloqlarini berkitadi. Chunki aynan uning, ya'ni poezdning oldida odamlar o'z jonlariga qasd qiladilar. Lirik qahramonning quloqlariga ana o'shalarining jon achchig'idagi qichqiriqlari kirib keladi. Shularni eshitmay deya, u quloqlarini berkitadi. Xo'sh, odamlar nega jonlariga qasd qiladilar?.. Shuning uchunki, poezd ularning yaqinlarini, qadrdonlarini, sevganlarini o'zi bilan birga olib ketadi. Balki manguadir... Demak, poezd ayni damda bir umrlik ayriliq ramzi bo'lib kelmoqda. Shoir esa ayriliq motivini poezd obrazi orqali mahorat bilan aks ettirmoqda. Men detal emas, obraz dedim. Chunki poezd detali S. Zamanan she'riyatida takrorlanib keladi, bas, uning zimmasiga katta badiiy yuk yuklanganligi bois ham u obraz darajasiga chiqqan, deb ayta olamiz.

“Ba'zi tanqidchilarning fikriga ko'ra, verlibr she'riyatida mavzular yo'qoldi va buning o'rniga shoirlar inson taqdirini, ayol va muhabbatni, o'limni, g'oyalar va ideologiyani, nizolar va falsafiy konsepsiyalarni, vatan va jamiyat muammolarini, g'urbatdagi hayotni va inson erkinligini cheklaydigan barcha narsalarini qanday ko'rishlarini tasvirladilar” deb yozadi arab she'riyat dunyosining yaxshi bilimdoni – tarjimon M. Saydumarov. “Verlibr (vers – she'r, libre – ozod, erkin) – muayyan o'lchov asosidagi vazn va qat'iy qofiyalanish tartibiga ega bo'lmagan she'r... XX asrda verlibr jahon she'riyatida, jumladan, o'zbek she'riyatida ham keng ommalashdi” (Quronov D. Mamajonov Z., Sheraliyeva M., 2010, 78-78). Demak, she'rdagi erkinlik yoki erkin she'r yozishga intilish nafaqat arab yo o'zbek, balki butun jahon she'riyatiga xos bo'lgan jarayon ekan. Bu jarayonning tobora tezlashayotgani esa, yuqoridagi ta'kidlanganidek, globallashuv bilan chamcharchas bog'liqdir. Bu jarayon, o'z navbatida, she'rning tematik diapazoniga ham ta'sir qiladi, qilmoqda. Aslida, mavzular uncha ko'p bo'lmaydi, faqat davrga qarab ularning o'rni almashib turadi, xolos. Hatto amerikalik mashhur yozuvchi, Nobel mukofoti sovrindori E. Xeminguey dunyoda to'rtta muhim mavzu borligini ta'kidlaydi: urush, muhabbat, hayot va o'lim. Albatta, mazular yozuvchi qayd etgandan sal ko'proq bo'lishi mumkin. Lekin ular yozuvchi qayd etgan asosiy mavzular atrofida turlanadi, tuslanadi. Ta'bir joiz bo'lsa, ular asosiy mavzularning o'ziga xos variantlaridir. Shu ma'noda, tarjimonimiz qayd etgan arab verlibr she'riyatidagi mavzular ham Xeminguey yodga olgan mavzularning biroz boshqacharoq shakldagi takroridan boshqa narsa emas.

M. Saydumarovning zamonaviy arab she'riyatini chuqur o'rganib, ulardan tarjimalar qilib, olgan tajribalari va bilimlari asosida yozgan so'zboshisida yana quyidagilarni o'qish mumkin: “Arab dunyosidagi shoirlar ovozi orasida saudiyalik verlibr shoirlarini ajratib turadigan xususiyat ularning ana shu mavzularda qayg'urishidir. Bu shoirlar o'z ijodlarida ramzlar, mahalliy lahja, Arabiston yarim orolidagi tarixiy qahramonlar va xalq orasidagi taniqli namoyandalarning poetik obrazlari, sahning taniqli tafsilotlari – karvon, qumlik, yomg'ir, musiqa asboblari, folklor raqslari va qo'shiqlari, ya'ni Arabiston yarim oroli aholisining ongi bilan uzviy bog'liq bo'lgan unsurlar kabi vositalar va badiiy uslublardan keng foydalandilar. Shuningdek, diniy an'ana ham keng qo'llanildi, islom tarixidagi voqealar va qahramonlarni eslash, diniy terminologiyani qo'llash kabi usullardan foydalanildi. Ko'povozli dramatik po-

eziya hamda hikoya etish va suhbat usulidan xalq ertaklarini bayon etuvchi she'riyat paydo bo'ldi". Ko'rinib turibdiki, mavzu va shaklda nihoyatda katta erkinlik bor. Bunday erkinlik zamonaviy jahon she'riyatiga ham xos xususiyatdir. Bir vaqtlar turk shoiri Nozim Hikmat o'z ijodi haqida quyidagilarni aytgandi: "Men barcha shakllardan foydalanaman. Xalq adabiyoti vazni bilan ham yozaman, qofiyali ham yozaman. Aksincha ham yozaman. Eng oddiy so'zlashuv tili bilan qofiyasiz, vaznsiz ham she'r yozaman. Sevgidan hamda tinchlik, inqilob, hayot, o'lim, sevinch, kadam, umid, umidsizlikdan so'z ochaman. Insonga xos bo'lgan hamma narsa she'rimga ham xos bo'lishini istayman. Istaymanki, o'quvchi menda yoki bizda butun tuyg'ularining ifodasini topaolsin". Bizningcha, bu izhordagi eng muhim jihat – "Insonga xos bo'lgan hamma narsa she'rimga ham xos bo'lishini istayman" degan iqrordir. Chindan, yangi adabiyot, jumladan, she'riyat o'zini shunday namoyon qilishni xohlamoqda: asrlar davomida muayyanlashgan qat'iy qoliplardan andak chekinib, hayotni uning o'zidan olgan, his qilgan ritmlarida aks ettirishga urinmoqda. Shoir S. Zamanan "U go'yo sovg'a xarid qilishga ketganday edi" deb nomlangan ota marsiyasida yozadi:

*Borliq kazarmasidan
Otam erta uzlatga ketdi.*

*Hamma otalar kabi qarib munkillamadi,
Zavjalariga liboslar olishdan to'xtaganlardek,
Bayramlarda ular-la raqs tusholmaydiganlardek,
Yoki eski do'stlar ismlarin unutganlardek
Keksayib, qarib munkillamadi.*

*Qarilik kuylashni taqiqlaydigan yoshga yetmadi
Xotira ohulari tun lahzasida qo'rqqandek qo'rqmadi,
Balki u tez ketdi.
Qo'shiq yangragandek do'stlar-la hazil qilayotib,
U go'yo sovg'a xarid qilishga ketganday edi.
Qo'lidagi hassasi bilan faxrlanishidan oldin
Abadiy sayr qilishga ketdi.*

Yuqoridagi sochma mavjud she'riyat qoliplari asosida emas, balki otasini yo'qotgan o'g'il ko'nglida o'sha onda tug'ilgan hayotiy ohang bilan bitilgan. Shuning uchun ham bu she'riyat haqida "u hayotga yaqinlashdi", deya olamiz. Xuddi mana bu xulosada aytilganidek: "She'riyat so'z boyligining yangilanishi ham yuz berdi, endilikda mualliflar murakkab metaforalar va ortiqcha musiqaviylikdan voz kechmoqdalar. Yangi she'riy lug'at so'z tanlashda, xalq iboralarini va oddiy xalqning hayotini va kundalik voqelikni ifodalaydigan idiomalarni qo'llash bilan xarakterlanadi" (Saydumarov M., 2020).

Darhaqiqat, globallashuv davrida hayot ritmi chunon o'zgardi va yana shiddat bilan o'zgarishda davom etmoqda. Bu evrilishlar o'z navbatida dunyoqarashni, iqtisodni, siyosatni, shuningdek, adabiyot-u san'atni ham o'zartirmoqda, ularga jiddiy tahrirlar kiritmoqda. Albatta, bu o'zgarishlar yaqinda, deylik, 2000-yillardan keyin paydo bo'lgan emas, uning tarixi ancha avvalgi davrlarga borib taqaladi. "Saudiya adabiyotida oq she'r o'zining hozirgi zamon shaklida, ramzlar, an'anaviy va afsonaviy qahramonlar obrazlarini qo'llagan holdagi shaklida

XX asrning yetmishinchi yillar nihoyasi va saksoninchi yillar boshlarida paydo bo'ldi", deb yozadi yana tarjimon. Mamlakatdagi iqtisodiy rivojlanish va jamiyatni modernizatsiya qilish natijasida ko'ngilga tug'ilgan xavotir tuyg'usi ana shunday yangilanishlarga yo'l ochgan sabablardan biri ekanligi to'g'risida ham so'z boradi u yerda. Demak, Saudiya Arabistoni jamiyatidagi o'zgarishlar she'riyatda yangi kayfiyatni vujudga keltirgan va bu o'zgachalik oq she'rda o'z ifodasini topgan. Natijada, o'tgan asrning 70- va 80-yillarida arab dunyosida yangi she'riyatning ilk namunalarini yaratilgan. Agar qiyos qilinadigan bo'lsa, garchi ilk kurtaklari Cho'lpon she'riyatida uch bera boshlaganiga qaramay, o'zbek nazmida ham to'laonli modernistik shakllar aynan 70-yillarda o'zini yaqqol namoyon qilgan edi. Ko'rinadiki, bu ikki hodisani qiyoslab o'rgansa, jahon adabiyotshunosligida qimmatli xulosalarga erishish mumkin bo'ladi.

O'zbek o'quvchisi modernizm deganda, ko'proq G'arb modern adabiyotini tasavvur qiladi, ko'z oldida ham g'arblilik ijodkorlar siymolari namoyon bo'ladi. Bu kabi tarjimalar natijasida esa arab mamlakatlari adabiyotidagi yangicha tamoyillardan, ularning namoyandaligidan ko'proq xabar topadi, ular yaratgan modernistik she'rlardan bahra oladi. Adabiyotshunoslar esa ikki adabiyotni o'zaro qiyoslaydi, o'rganadi, mushtarak va farqli jihatlari haqida soha uchun qimmatli xulosalar chiqarishadi. Shu ma'noda "Abadiyat manzillari" kabi kitoblarning paydo bo'lishi ayni muddaodir.

Modern she'rni tarjima qilish qiyin. Buni mutaxassislar ham tan olishadi. Shunga qaramay, Murtazo Saydumarov bu qiyin ishning uddasidan chiqqan, deb o'ylayman. Har holda, Solih Zamananning she'rlari o'zbek tilida o'zbekona ifodalar bilan jaranglaydi. Albatta, bu borada yana-da asosli mulohazalarni arab va o'zbek adabiy tilini qiyosiy tadqiq etuvchi bilimdonlar aytishadi. Lekin arab shoirining o'zbek tilida yangragan mana bunday she'rlari xuddi o'zimizning shoir qalamidan chiqqandek silliq qabul qilinadi – o'qiladi. Bu, shubhasiz, tarjimon mahorati bilan bog'liq natijadir:

Ochiq bo'l,

Ochiq bo'l yo'qlik manzillarida.

Bilginki, qabr –

Kiyim almashtirish xonasi emas.

Lekin u Abadiyat sari

Sayr qilishingdagi yo'lning boshlanishidir!

XULOSA

Demak, shoirga ko'ra, qabr – kiyim almashtiradigan xona emas, ya'ni turlanadigan joy emas, aksincha, u abadiiy sayrning ibtidosi, xolos. Oldinda abadiyatning ko'pdan ko'p manzillari kutib turibdi. Bas, bu yo'lda ochiq, samimiy bo'lishgina o'zini oqlaydi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bugun butun dunyoni qamrab olgan globallashuv jarayoni jahon adabiyotida bir talay jiddiy o'zgarishlarni vujudga keltirdi. Zamonaviy arab she'riyati ham bundan mustasno emas. Solih Zamanan she'riyati esa, ana shu salmoqli evrilishlarni o'zida mujassam qilgan, ayni paytda, shakl va mazmun mundarijasiga ko'ra o'ziga xos she'riyatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Қуроноф Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б.78-79.
2. Солиҳ Заманан. Абодият манзиллари. Насрий шеър: шеърлар тўплами. Араб тилидан Муртазо Сайдумаров таржимаси. – Тошкент: Yashlar nashriyot uyi, 2020. – 104 б.
3. Хорижий адабиётшунослик ва таржимашуносликнинг долзарб масалалари. Илмий мақолар тўплами. – Самарқанд, 2020.
4. Ҳамдамов У., Қосимов А., Жаҳон адабиёти. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Баркамол файз медиа, 2017.

REFERENCES

1. Kuronov D. (2010) and others. Dictionary of literary studies. Tashkent. Akademnashr, P.78-79.
2. 2. Salih Zamanan. (2020) Addresses of Eternity. Prose poetry: a collection of poems. Translation from Arabic by Murtaza Saidumarov. Tashkent: Youth Publishing House, 104 p.
3. Current issues of foreign literary studies and translation studies. (2020) Collection of scientific articles. Samarkand.
4. 4. Hamdamov U., Kasimov A. (2017) World literature. Study guide. Tashkent: Barkamol fayz media